



Received: July 21, 2023
Accepted: September 16, 2023
Available online: September 25, 2023

Elmurod Tursunov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
mustaqil izlanuvchisi
Toshkent, O'zbekiston

TIL VA TARJIMA BIRLIKLARINI TASNIFLASH MUAMMOLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotdan ko'zlangan maqsad – til va tarjima birliklarini tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tizimli tasniflashdir. Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, mamlakatimiz va xorijlik tilshunos va tarjimashunos olimlar va soha mutaxassislarning mavzuga doir fikr va mulohazalari muayyan tasnifiy guruhlariga ajratilib tahlil qilindi. Xususan, tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan bo'lgan til birligi termini diaxron va sinxron aspektda tekshirildi. Bundan tashqari, tarjimashunoslikning tayanch tushunchalaridan hisoblangan tarjima birligi hodisasi ham atroflicha yoritildi va tarjima birligi til birligidan qay jihatdan farqlanishi ilmiy asoslandi.

Ma'lumki, til va tarjimashunoslikning shakllanishi, rivojlanishi va takomillashib borish usullarini, mazkur jarayonlarda amal qiladigan qonuniyat, sabab va imkoniyatlarni aniqlash, yoritib berish, tilshunoslikning tarjimashunoslik bilan uzviyligi, tarjimashunoslik "mundarijasi"ni tuzishda turli til sathlari bilan ish ko'rish, tilshunoslik va tarjimashunoslikning bir-biriga o'xshash va farqli birliklarini tasniflash mazkur ikki sohaning asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelgan va hozir ham ushbu masalalar markaziy masalalardan hisoblanadi. Tarjimachilikning asosiy ish quroli til hisoblanadi. Til eng noyob va serqirra muloqot vositasi bo'lib, har qanday tarjima jarayoni ayni shu murakkab tizim asosida amalga oshiriladi. Til va tarjimoni tashkil etuvchi tizimlarni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadigan nazariy muammolarni o'rganmasdan, til va tarjima me'yorlarini, ularning ishlash mexanizmi va imkoniyatlarini bilmasdan har ikki tizim amaliyotini to'liq yoritib berish imkonsiz. O'tgan yillar mobaynida tilshunoslik

Elmurod Tursunov

Independent Researcher, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: tursunovelmurod03@gmail.com

PROBLEMS OF CLASSIFICATION OF LANGUAGE AND TRANSLATION UNITS

ABSTRACT

The research aims to systematically classify language and translation units from a translation studies perspective. Uzbek and foreign linguists, translators, and experts in the field have divided opinions and comments on a specific subject into classification groups based on the research's purpose. In particular, the central concept of linguistics, the linguistic unit, was examined from both diachronic and synchronic perspectives. One of the fundamental concepts in translation studies is the translation unit, which was scientifically distinguished from the language unit.

Language and translation studies involve the study of the development and improvement of language and translation processes. The integration of linguistics with translation studies, working with different language levels, and the classification of units of translation studies are all important tasks in these fields. Even to this day, these issues remain central. Language is the main tool of translation and is a complex system that is essential to any translation process. To fully understand language and translation systems, it is necessary to study theoretical problems, standards, and their mechanisms. Linguistics and translation studies have developed independently over the past few decades, and important changes have been made in all their fields to meet the requirements of the time. Scientific and practical works that focus on developing both systems and clarifying the laws that govern them have been created in all fields of translation studies and linguistics.

The research utilized comparative analysis and descriptive statistical methods to systematize scientific observations and opinions about

va tarjimashunoslik alohida-alohida ravishda rivojlandi, uning barcha sohalarida, davr talabiga mos ravishda jiddiy va muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Tarjimashunoslik va tilshunoslikning barcha sohalarida yaratilgan ilmiy-amaliy ishlar har ikki tizimning rivojlanishi va mazkur jarayonni ta'minlab beruvchi qonuniyatlarni yoritishga bag'ishlangan ishlar ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Tadqiqotda qiyosiy-tahlil, deskriptiv, statistik va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijada soha mutaxassislari tomonidan ilgari surilgan til va tarjima birliklariga oid ilmiy mulohazalar va mulohazalar tizimlashtirildi hamda ayrim terminlarning qo'llanilishiga oid xulosalar keltirildi. Bundan tashqari, maqolada leksik birliklar tarjimasi xususida turli yondashuvlar ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tarjima birligi, til birligi, til qurilishi elementi, perevodema, translema, fonema, morfema, frazeologik birlik.

KIRISH

Tarjima jarayoni eng mashaqqatli, nozik va mas'uliyatli faoliyat turlaridan biri bo'lib, unda qo'llaniladigan birliklar shunday tanlanishi kerakki, asliyat matnida ifodalangan ma'no-mazmun tarjima matnidagi ma'no bilan mutanosib va teng qiymatli bo'lishi zarur. V.N. Krupnov, o'z kasbiy tajribasidan kelib chiqib, matnning mazmun jihati katta ahamiyatga ega ekani haqida so'zlar ekan, to'laqonli va yuqori saviyali tarjimaga erishish uchun tarjimaning alohida (so'z va so'z birikmasi darajasidagi tarjima mutanosibligi) hamda umumiy xususiyatlari (yaxlit kontekstni inobatga olib, matn mazmunini gaplar darajasida yetkaza olish) ijodiy qorishmasidan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi [Krupnov, 1976; 176].

Tarjima nazariyasi fani qiyosiy tilshunoslikdan ajralib chiqib, alohida fan sifatida shakllanishi, takomillashishi va boshqa fan sohaları bilan uzviy bog'lanishda taraqqiy etishi natijasida ko'plab yangi va aynan tarjima faoliyatiga tegishli termin va iboralar bilan boyidi. Bularga *tarjima birligi*, *tarjimada ekvivalentlik*, *adekvatlik masalasi*, *perevodema*, *translema*, *leksik transformatsiya*, *kompressiya* va shu kabi yuzlab termin va iborlarni misol qilish mumkin. Mazkur maqola til va tarjima birliklarini tasniflash muammosi, leksik birliklarni tarjima qilish usullari va ularning semantik sathda tutgan ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda tilning lug'at boyligi sistemasi bilan ish ko'ruvchi leksikologiyaning muhim va markaziy tushunchalaridan biri hisoblangan *leksik birliklar* "tilning lug'at tarkibidagi jamiki so'zlar hamda barqaror birikmalar"dan [Nurmonov va boshq., 2002] tashkil topgani aytiladi. Ushbu termin bilan bir qatorda leksik sath birliklari termini ham qo'llaniladi.

language and translation units. Industry experts put forward these observations and opinions, and as a result, conclusions were made about using certain terms. The article also describes various approaches to the translation of lexical units.

Key words: translation unit, language unit, element of language construction, perevodema, translema, phoneme, morpheme, phraseological unit.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqot o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra tilshunoslik hamda tarjimashunoslikning tayanch tushunchalari – til va tarjima birliklarini tasniflash, ularning tarjima jarayonida ayni bir vazifani bajarish uchun umumiylik hosil qilish mumkinligini ko'rsatish va tasdiqlashga xizmat qiladi. Sohaga oid maxsus izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, til va tarjima birliklari tahliliga ko'ra fragmental, ya'ni muxtasar, ixcham kuzatishlar olib borilgan bo'lib, yaxlit tadqiqot obyekti sifatida tizimlashtirilmagan. Shu sababli ishni yoritilishida mamlakatimiz va xorijiy olimlarning sohaga oid bildirilgan fikr-mulohazalarini tilshunoslik aspektida muayyan guruhlariga ajratib, tasniflash maqsadida tahlil, deskriptiv, kontekstual va komponent metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, mavzuni batafsil yoritib berish maqsadida ayrim leksik birliklarni rus, o'zbek hamda ingliz tillaridagi *room*, *payroll*, *to'lov vedomosti*, *hitchhiking* kabi leksemalarning to'laonli mos kelishi va teng qiymatli ekvivalentlarini topish masalasiga murojaat qilish asnosida transformatsion, qiyosiy-chog'ishtirma, kontekstual-situativ tadqiqot metodlaridan ham tahlil jarayonlarida foydalanildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Mazkur tadqiqot hozirgi zamon tarjimashunosligida til va tarjima birliklarini tasniflash muammolariga bag'ishlanganligi bois, dastlab til birligi, ya'ni til qurilishining asosiy birliklariga oid bildirilgan fikr-mulohazalarni tahlil qilish hamda ularni muayyan tizim asosida tasniflash maqsadga muvofiq, deb hisoblandi. Tilshunoslikda va fanning boshqa sohalarida tasniflash muhim ahamiyatga egadir. To'g'ri va aniq tasnif hodisalar va ularning mohiyatini aniq belgilash va batafsil yoritish imkonini beradi. "Tasnif har bir fanga xos muhim mantiqiy amal bo'lib, uning vositasida shu fan doirasida to'plangan bilimlar qat'iy tartibga solinadi" [Niyazov, 2023]. Har qanday tasnif muayyan shart, belgi va qoidalar asosida tuziladi. Masalan, tarjima birliklarini tasniflashda mazkur hodisaning tildagi qanday sath, birliklar asosida tanlab olinishi, tarjima faoliyatining ko'zga ko'rinmas va ichki ishlash jarayonida tarjimon tomonidan, o'girilayotgan matnning semantik, uslubiy, badiiy va boshqa jihatlari, tanlab olinadigan alohida qismlari hisobga olinadi.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligi va ungacha bo'lgan o'zbek mumtoz she'riyati va adabiyoti namoyandalari ham til va nutq birligi mavzusida o'z nuqtayi nazarlarini bildirib o'tishgan. "Alisher Navoiy asarlariga e'tibor berilsa, bu olim V.Gumboldt va F. de Sossyurlardan ancha oldin til va nutq hodisalarini bir-biridan farqlaganining guvohi bo'lamiz. Alisher Navoiy imkoniyat tarzidagi so'z (til birligi) sohibi ixtisos (so'zlovchi) tomonidan turli xil jilvalantirilishi (nutq birligi sifatida reallashtirilishi) mumkinligini bayon qiladi" [Nurmonov, 2002; 79-80]. Demak, o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning ulug' shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi til birligi va mazkur hodisaning inson nutqida faollashuvi haqida o'sha davrga xos va mos tarzda fikr bildirgan edi. Biroq, u tomonidan mavzuga doir e'tirof etilgan ushbu mulohaza, albatta, zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan keltirilgan ta'rif-u tavsiflarchalik rang-barang va murakkab bo'lmasa-da, o'zining muhimligi bilan ajralib turadi.

Tadqiq etilayotgan til birliklarining adabiyotlardagi talqini, asosan, bu xususda bayon etilgan fikrlar taraqqiyoti o'tgan asrning yarmiga kelib, chinakam tadqiqot predmetiga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Turli adabiyotlarda *til birligi* hodisasi *til qurilishining elementi*, *til qurilishi birliklari*, *til hodisalari*, *til birliklarining qurilish birligi*, *tilning leksik birliklari*, *til elementlari*, *til qurilishining turli vazifa va ma'noga ega elementlari* va *til birligi* kabi terminlar bilan atalib kelingan. Tilshunoslikda til birliklarini yoritish masalasi bilan Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, H.Jamolxonov, H.Ne'matov, R.Rasulov, D.Lutfullayeva, R.Davlatova, M.Saparniyozova, A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova, Sh.Yusupova, N.Mahmudov, T.M.Tog'ayev, I.Qo'chqortoyev, B.Mengliyev, X.Xayrullayev, A.Axmedov, M.Yo'ldosheva kabi o'zbek tilshunos olimlari va qator tadqiqotchilar shug'ullangan. Bundan tashqari, I.Rezvin, E.Kubryakova, L.Sherba, V.Vinogradov, A.Reformatskiy, A.Smirnitskiy, V.Koduxov, V.Solntsev, G.Glison, L.Blumfeld, Y.Stepanov, A.Peshkovskiy, L.Barxudarov, V.Komissarov, T.Kazakova, I.Alekseyeva kabi olimlar ham o'z asarlarida til birliklarini tadqiq etib, ular haqida o'zlarining qimmatli fikrlarini bildirib o'tgan, ammo ularning ilmiy tadqiqotlarida til va tarjima birliklari hozirgi zamon tilshunoslik nuqtayi nazaridan maxsus tasniflash vazifasi qo'yilmagan.

Til birliklarini quyidagi tasniflarga ajratib, tadqiq etish mumkin. Birinchi tasnifga ko'ra, I.Rezvin, E.S. Kubryakova tomonidan yozilgan adabiyotlarda hamda L.V. Sherba va V.V. Vinogradov asosiy til birliklari sifatida *nuqt tovushi* yoki *fonema*, *bo'g'in*, *morfema*, *so'z*, *birikma* va *gapni* tanlab oladi [Sherba, 1953]. Ko'rinib turibdiki, bu asarda nuqt tovushi va fonema birlamchi til birliklari qatoriga qo'yiladi, ammo til tovushlari faqatgina til birliklari uchun ifoda jihati bo'lib xizmat qilishi, ular til birliklarining mazmun jihatini ifodalay olmasligini hisobga olsak, til qurilishi birliklarini bu tarzda ajratilishini to'g'ri deb bo'lmaydi. "Til birligi bo'lish uchun bir butunni tashkil qiluvchi ikki jihat – ifoda jihati va mazmun jihati mavjud bo'lishi lozim" [Rahmatullayev, 2006; 6]. Bundan kelib chiqadiki, til birligi bo'lishning asosiy sharti u ham shakl, ham mazmun birligiga ega bo'lishi kerak. I.I. Revzin shunday yozadi: "Demak, endi tilning asosiy birligi so'z emas, balki morfema ekanligini umume'tirof qilingan mulohazalardan deb hisoblash mumkin" [Revzin, 1962; 119]. Bundan ko'rinib turibdiki, I.I. Revzin asosiy til qurilishi birligi sifatida morfemani tanlab oladi.

E.S. Kubryakovaning ta'kidlashicha: "...morfologik nuqtayi nazardan so'z morfemalar birikuvidan tashkil topishi mumkin yagona hosila bo'lmay, balki birikish natijasidan yuzaga keladigan hosilalardan biridir, shu sababli so'zning morfologik tuzilishini o'rganish ma'lum darajada morfemalarning turlari va munosabatlarini o'rganishga oid umumiy vazifa, deb qaralishi kerak. Masalaga bu tarzda yondashilsa, so'z morfemaga nisbatan ikkilamchi til hodisasi ekani ma'lum bo'ladi" [Kubryakova, 1963; 181-182]. Ko'rinib turibdiki, E.S. Kubryakova til birligi mavqeiga ega bo'lishda so'z va morfemalarning qay biri ustunlik qilishi haqida yozadi, biroq boshqa til birliklari bu ro'yxatga kiritilmagan.

Ikkinchi tasnifga binoan, A.A. Reformatskiyning ta'kidlashicha, asosiy til birliklari *nutq tovushi* (fonema), *so'z o'zagi* (morfema), *so'z* hamda *gap* hisoblanadi

[Reformatsky, 1996; 18]. Olim o'z fikrining tasdig'i sifatida nuqt tovushi, shu nutq tovushi bilan ifodalanadigan so'z o'zagini hamda gapni alohida ramziy belgilar bilan tushuntirishga urinadi va uning talqinini yuqorida qayd etilgan tavsifga nisbatan aniqroq va batafsilroq deyish mumkin. Til birligi haqida keltirilgan fikrlarning ichida A.I. Smirnitkiy tomonidan berilgan *uchinchi tasnif-ta'rifni* umumiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan mukammalroq ta'rif deb hisoblash mumkin. Uning ta'biricha, til birligi tilga xos bo'lgan muhim umumiy belgi-xususiyatlarni o'zida namoyon qilishi kerak. Olim o'z fikrini davom ettirib, bunday birliklar ma'no-mohiyat va hissiylikni hamda qayta aks ettiruvchilik xususiyatiga ega bo'lgani bois, ularni ikki tomonlama birliklar deb ham atash mumkinligini ta'kidlaydi. Ana shunday til birliklari qatoriga *so'zni*, so'z tarkibiga kiruvchi *morfemalarni*, *frazologik birliklarni*, tarkibli termin kabi *murakkab qurilishli birliklarni* hamda *formulalar* til birliklari qatoriga kiritadi [Smirnitkiy, 1956; 14-16]. V.I. Koduxov tomonidan til birliklarining gapda bajaradigan vazifasiga ko'ra nominativ, kommunikativ va qurilish birliklar kabi uch turga ajratilishini *to'rtinchi tasnifga* kiritish mumkin [Koduxov, 1979; 105]. Uning fikricha, so'z tilning nominativ birligi bo'lib xizmat qiladi. U tilning kommunikativ birligi deb *gapni*, tilning qurilish birliklari deb esa *fonema*, *morfema*, *so'z*, *so'z shakllari*, *birikma shakllarini* tanlab oladi. Shunga qaramay, nima sababdan til hodisalarini bunday uchta alohida guruhga bo'lib, tahlil qilinishi asoslab berilmagan. "Nominativ" so'zi nomlash ma'nosini ifodalab, biror tushunchani nomlash va fikr ifodalashga xizmat qiladi, ammo ayrim hollarda nominativ birliklar kommunikativ birlikka ham aylanishi mumkin. Aslida qurilish birliklari bo'lib fonema, morfema va leksema xizmat qiladi. *Beshinchi tasnif sifatida* V.M. Solnsev tomonidan bildirilgan fikrni olish mumkin. Unga ko'ra, til birliklari *material birliklar*, *nisbiy-material birliklar* va *ma'no birliklari* kabi uch guruhga bo'linadi. U material birliklar qatoriga *fonema*, *morfema*, *so'z* va *gapni* kiritadi. Tilshunoslikda, ayniqsa, rus tilshunosligida material birlikodatda, segment (bo'linmas, bo'laklarga ajratilmaydigan) birlikni ifodalaydi. Ayni shu fikrga tayanib aytadigan bo'lsak, fonema va morfema chindan ham segment birlik bo'la oladi, ammo so'z va gap segment birlik bo'la olmaydi, chunki ular boshqa birliklar yordamida tuziladi. So'z, birikma va gap tuzish modeli esa o'zgaruvchan tovush qobig'iga ega birliklar sifatida nisbiy-material til birliklariga kiritilgan. Mazkur birliklar tuzish, hosil qilish modellari sifatida o'z tovush jihatiga ega bo'lmaydi, shu sababli ular supersegment birliklar deyiladi. Tadqiq etilayotgan mazkur birliklar strukturaviy tilshunoslik yo'nalishi namoyandalari tomonidan baholangan bo'lib, ularni tasniflashning oltinchi guruhiga kiritish mumkin`.

G.Glison va L.Blumfild *fonemaga* tilning asosiy birligi sifatida qarab, uni ifoda birligi deb tavsiflaydi. Morfema ham tilning asosiy til qurilish birligi hisoblanib, u ifoda birligi bo'libgina qolmasdan, fonemadan farqli ravishda "muayyan mazmun ifodalashga ham xizmat qiladi". G.Glison so'zga til hodisasi sifatida umuman aniqlik kiritmagani holda quyidagi mulohazalar bilan cheklanadi: "Ingliz tilida qo'llaniladigan sodda so'zlar morfemalardan iboratdir" [Gleason, 1955; 43]. Yuqorida aytib o'tilganidek, fonema til birliklari uchun faqat ifoda jhati bo'lib xizmat qiladi, ammo morfemaning asosiy til birliklaridan biri deb qarash mumkin.

Biroq, til birliklari tizimi faqat fonema va morfemani bilangina cheklanib qolmaydi. Tildagi ushbu lingvistik sathlardan yuqorida turuvchi boshqa til birliklari esa e'tiborga olinmagan. So'zga kelsak, L.Blumfild so'zni morfema tushunchasi orqali ifodalab, unga hosila yoki tuzilma birlik sifatida qaraydi. Uning ta'kidlashicha, "so'z ibora (yoki birikma) darajasigacha rivojlanmagan erkin shakliy birlikdir" [Bloomfield, 1968; 187]. Avvaliga L.Blumfild so'zni tilning eng kichik birligi deb hisoblaydi, keyinchalik so'z tushunchasi butunlay ikkinchi planga tushib qolgan.

Strukturaviy tilshunoslikda va so'zga oid struktur tilshunoslarning nuqtayi nazarlarini bayon etilgan asarlarda so'z morfemalarning turli tartibga solingan shakli sifatida, so'z birikmalari va gaplar ham morfemalarning muayyan tartibda tizimlashtirilgan qolipi sifatida qaraladi.

Y.S. Stepanov o'zining "Tilshunoslik asoslari" asarida til birliklarini strukturaviy birliklar va me'yoriy birliklarga ajratadi. *Fonema*, *morfema* va *konstruksiya* strukturaviy birliklarga tegishli bo'lsa, *so'z* va *gap* me'yoriy birliklar qatoriga qo'yiladi. Y.S. Stepanov so'zga morfema orqali ta'rif berar ekan, shunday deydi: "So'z boshqa morfemalardan o'zining yaxlitligi va bo'linuvchanligi bilan ajralib turadi" [Stepanov, 1966; 97].

O'zbek tilida yozilgan asarlarda til va nuqt birliklarini guruhlash va ularni izohlash, ularga oid aks ettirilgan yondashuvlardan mazkur til hodisalari mamlakatimiz tilshunoslari e'tiboridan chetda qolmaganini ko'rsatadi. A.Hojiyev til birligi haqida so'z borganda uni ikki turli til hodisasi sifatida ajratib, tadqiq etish kerakligini ta'kidlaydi. "Til birligining mohiyatini to'g'ri belgilashda, avvalo, uning lison va nutqqa munosabatini – lisoniy yoki nutqiy birlik bo'lishini aniq belgilash talab etiladi" [Hojiyev, 2010; 5]. Ayrim hollarda lison, til va nutq terminlari o'zaro almashinib, bir-birini o'rniga qo'llanilgan holatlarni kuzatish mumkin, ammo lison va nutq tilshunoslik nuqtayi nazardan bir-biridan farqli tushunchalardir. Til tizimlardan iborat bo'lib, har bir tizim muayyan til birligi asosida shakllanadi. Azim Hojiyevning ta'kidlashicha, til tizimdan iborat ekan, ular til qurilishini tashkil etuvchi qismlarga ajratilgani bois, til birliklarini tasniflashda ularning mazkur til qurilishini shakllantirish jarayonida tutgan o'rni va bajaradigan vazifasiga e'tibor berish lozim. Mavzu yuzasidan fikrini davom ettirar ekan, olim til birliklarini tasniflashda ularning muayyan vazifani bajarishi, til sistemalarini shakllantiruvchi va tashkil etuvchi birliklarga nisbatan *sistemani shakllantiruvchi til birliklari*, *yasovchi til birliklari*, *funksional til birliklari* kabi turlarga ajratib, har bir tur ichida shu birliklarni o'z ichiga olgan turkum mohiyati, vazifasi, sistemani shakllantirish yoki shakllanishida bilvosita va bevosita ishtiroki nuqtayi nazaridan til birliklari haqida ma'lumot berishga harakat qilgan. "...o'zbek tilshunosligida til sistemalari, sistemalanish haqida gap borganda, fonema, morfema, leksema, so'z shakli asosida shakllanuvchi sistemalar – fonologik, morfem, leksik va morfologik sistemalar nazarda tutiladi, shu sistemalar haqida fikr yuritiladi. Biroq umumiy belgi asosida guruhlanish barcha til birliklari uchun xos. Masalan, lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan, ya'ni mustaqil bo'lmagan so'zlar – undovlar, taqlid va modal so'zlar, shuningdek, funksional birlik bo'lmish va "ko'makchi", "bog'lovchi", "yuklama" deb yuritiluvchi til birliklari

ham ma'lum umumiy belgilar asosida guruhlarga bo'linadi. Buning sababi obyektiv borliqda yakka holda yashovchi narsa-hodisaning o'zi yo'qligidadir. Til sistemasida ham yakka holda amal qiluvchi til birligining bo'lishi mumkin emas" [Hojiyev, 2010; 22]. Mazkur kitobda har bir til birligi ma'lum sath, sistema ostida berilgan bo'lib, morfem sathda til birligi sifatida *morfema*, leksik sistemada til birligi sifatida *so'z (leksema)*, so'z yasaliishi sistemasida *yasama so'z*, morfologik tizimda *so'z shakli* olingan. Sh.Rahmatullayev til, lison va nutqni quyidagicha ta'riflaydi: "Lisonga mansub, ya'ni til xotirasida mavjud hodisalarga "lisoniy birliklar" deyiladi; lisoniy birliklarning nutqda moddiy shakl olgan holatiga "nutqiy birliklar" deyiladi. Demak, har bir kishining ongida lisoniy birliklarning ramzlaridan va ulardan foydalanishning qoidalaridan iborat boylik bor, har bir kishi ehtiyojiga qarab bu boylikdan foydalanib, nutq hosil qiladi" [Rahmatullayev, 2002; 12-13].

Sh.Rahmatullayev til birliklarini tasniflab, ularni olti katta guruhga ajratadi va har bir guruhga mansub til qurilishining asosiy birliklari haqida batafsil ma'lumot beradi. Olimning fikricha, til qurilishining asosiy birliklari sifatida *til tovushlari* (asosan, til birliklarini hosil qilish uchun ifoda jihati sifatida), *morfema* va *leksema*, *leksema shakl*, *birikma shakl*, *gap shakl* va *frazemalarga* ajratiladi. Til birliklarini tasniflash va ushbu tushuncha talqini masalasida bildirilgan va bildirilayotgan fikr-mulohazalar mushtarak emas. Mazkur masala tavsifi va tasnifiga yana chuqurroq va jiddiyoq yondashilsa, bu sohada tilshunoslar tomonidan bildirilgan fikrlarning nafaqat nomutanosib ekanini, ayrim hollarda ularning bir-birlarini inkor etishlarini kuzatish mumkin. X.Z. Xayrullayevning fikricha, "tilning asosiy birligi so'zdir, zotan, u til mexanizmida markaziy o'rinda turadi (F. de Sossyur). Tilshunoslar tomonidan so'z tushunchasi o'rniga qo'llanilayotgan leksema, leksik morfema kabi terminlar ham ko'p jihatdan o'zini oqlamayapti. Umuman olganda, so'z tilshunoslarimiz uchun qanday jumboq bo'lib, kelgan bo'lsa, hozir ham shundayligicha qolmoqda. Biroq til birliklarining pog'onali munosabatini o'rganar ekanmiz, so'z sathida tilning ikkita ma'noli birligi o'zaro kesishishidir" [Hayrullayev, 2010; 9]. Demak, tilning asosiy qurilish birliklarini tasniflashda, ularning tashkil topish mexanizmi, ularning fikr ifodalash hamda til hodisasi sifatida nutqiy birlik bo'lib namoyon bo'lishida, ularning sintaktik munosabatlarni hosil qilishida uning ifoda va mazmun jihatiga e'tibor berish lozim. Xulosa qilib aytganda, Sh.Rahmatullayev tomonidan mavzu yuzasidan bildirilgan fikrlar o'zining batafsil yoritilganligi va har bir til hodisasi haqida to'liq va aniq ma'lumotlarni jamlaganligi jihatidan ajralib turadi. Tildagi mazkur murakkab hodisa bo'yicha tugal to'xtamga kelishda ham aynan u bayon etib o'tgan mulohazalarga tayandik. Demak, asosiy til birliklariga *morfema*, *leksema*, *leksema shakl*, *birikma shakl*, *gap* (aniqrog'i, *gap shakl*) hamda *frazemalarni* olish mumkin. Til tovushi til birliklarining birlamchi ifoda jihati bo'lib kelsa, fonemalar til birliklarining ifoda jihati bo'lib keluvchi va ularning bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan tovushlar yoki til tovushlari zanjiridir.

Tahlilni tarjima birliklarini tasniflash bilan davom ettiramiz. Tarjimashunoslik ilmining boshlanish nuqtasidan to hozirga qadar ko'p tarjima maktablari, adabiyotlar va bevosita shu fanni sir-sinoatini yorituvchi atamalar hamda o'ziga xos terminlar

vujudga keldi. Ana shunday atamalardan biri *tarjima birligi* atamasidir. Mazkur atama tarjimashunoslikda eng ko‘p qo‘llaniladigan atamalardan biridir. Mutaxassislar hozirga qadar mazkur terminning mazmuniy tarkibini, ma‘no-mundarijasini va ta‘rifini to‘liq ifodalab berishga muvaffaq bo‘lishmagan, ammo ushbu lisoniy hodisa to‘g‘risida o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tishgan. Tarjimachilik tarixiga nazar tashlasak, mazkur fanning o‘zi bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lsa-da, uning “ichki ishlash mexanizmi” hisoblangan *tarjima birligi* atamasi o‘tgan asrning 60-yillaridagina paydo bo‘lgan. Ushbu atama ilk marotaba J.P. Vinay va J.Darbelnet tomonidan tarjima nazariyasiga oid yozilgan “Fransuz va ingliz tillarining qiyosiy uslubi” nomli asarda keltirib o‘tilgan bo‘lib, unda tarjima birligini aniqlash nafaqat muhim ahamiyat kasb etishi, shu bilan birgalikda, mazkur muammoni bartaraf etish bo‘yicha ko‘p va turli xil yondashuvlar mavjud ekani ko‘rsatib o‘tilgan. “Faoliyat birligini aniqlash barcha fanlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Aynan buni tarjimada ham kuzatish mumkin” deydi [Vinay & Darbelnet, 1958; 65] kanadalik tilshunoslar.

Tasnifning *birinchi guruhiga* I.S. Alekseyeva, L.S. Barxudarov, V.N. Komissarov hamda T.A. Kazakova kabi olimlar va mutaxassislarni kiritish mumkin. Bu guruhga mansub tarjimashunoslar *fonema, morfema, so‘z, so‘z birikmasi, gap* va *butun bir yaxlit matnni* tarjima birligi sifatida ajratish mumkin ekanini ta‘kidlaydi. I.S. Alekseyeva ushbu birlik haqida so‘z yuritarkan, “...tarjima birligi qaysi darajaga mansubligiga qarab ularni fonemadan tortib butun bir gapgacha ajratish mumkin” deydi [Alekseyeva, 2004; 148]. Ko‘rinib turibdiki, fonema tarjima birligi bo‘lib ishlatilishi mumkin, ammo u til birligi maqomini olmaydi. Misol tariqasida ingliz tilidagi *Elizabeth* ayollar ismini olaylik. Uni o‘zbek tilida ifodalash uchun ingliz tilining grafik tizimi asosida yozilgan ushbu so‘z o‘zbek tilidagi grafik tizim vositalari bilan harfma-harf almashtiriladi. Natijada inglizcha *Elizabeth* so‘zi *Elizabet* tarzida yoziladi. Misolda qo‘llanilgan inglizcha ism yettita harfdan (*e, l, i, z, a, b, e*) hamda bitta harf birikmasidan (*th*) tashkil topgan. O‘zbek tilining grafik begilar tizimida ingliz tilida berilgan barcha yettita harf uchun mos keladigan belgilar mavjud, so‘nggi harf birikmasi esa o‘zbek tilida bo‘lmaganligi uchun *th* birikmasi talaffuz va yozuv jihatdan yaqinroq bo‘lgan *t* harfiga almashtiriladi. Bunda sanab o‘tilgan fonemalar alohida ma‘no-mazmunga ega bo‘lib, o‘zbek tilidagi unga mos keladigan mos va eng qimmatli leksemani topish talab qilinmaydi, balki fonemalar ayni shu so‘zni o‘zbek tilida muqobil ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi. L.S. Barxudarovning fikricha, “Tarjima birligi deganda tarjima matnida boshqa birlikka mos keladigan asliyat matnidagi birlik bo‘lib, uning tarkibiy qismlari alohida olinganda tarjima matnida hech qanday birlikka mos kelmaydi. Boshqacha aytganda, tarjima birligi bu tarjima jarayonining eng kichik birligi bo‘lib, u asliyat matnida ifodalangan sintaktik va morfologik xususiyatga ega biror birlikni tarjima matnida qayta yaratishga, qayta jonlantirishga xizmat qiladi” [Barxudarov, 1975]. Tarjima birligiga oid bildirilgan fikr-mulohazalar ichida, ayniqsa, L.S. Barxudarov tomonidan aytilgan ta‘rif o‘zining to‘laqonliligi, mufassalligi, tadqiq etilayotgan birlik ma‘no-mohiyatini to‘liq ochib berishi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Mazkur birlik yuzasidan u keltirgan tavsifga ko‘ra, tarjima birliklari fonemadan tortib butun bir matngacha bo‘lishi mumkin [Barxudarov, 1975]. Ayni shunday fikr

V.N. Komissarov tomonidan bildirilgan bo‘lib, uning ta’kidlashicha, “Tilning turli darajadagi ifoda qobiliyatini tavsiflash tilda alohida birliklarni ajratishni taqozo etadi. Ularning har biri muayyan sathga tegishli bo‘lib, (tarjima matnida) boshqa sathdagi birliklarga ma’lum bir tabaqalashtirilgan munosabatga kirishadi. Bu kabi birliklar tilda fonema, morfema va leksemalar deyiladi. Ushbu birliklarga nisbatan *tarjima birligi* yoki *perevodema* terminini qo‘llash mumkin” – deb ta’kidlaydi [Komissarov, 1973; 185].

Ushbu birlik borasida keltirilgan tasniflarning *ikkinchi guruhiga* R.K. Minyar-Beloruchev tasnifini kiritish joizdir. Uning fikricha, “biror birlikni tarjimada qo‘llaniladigan birlik, deb avvaldan belgilab qo‘yishning imkoni yo‘q, shu sababli tilmoch o‘z faoliyati uchun asqotadigan barcha kalit so‘zlar ro‘yxatini tuza olmaydi. Shunday bo‘lsa-da, muntazam ravishda takrorlanib qo‘llaniladigan ayrim birliklarni eslatib o‘tish joiz. Bular qatoriga ko‘p qo‘llaniladigan iboralar (klishealar), kirish so‘zlari, terminlar va qisqa jummlar kiradi” [Minyar-Beloruchev, 1999; 152]. Iboralar, turg‘un birikmalar, kirish so‘z, termin tarjima birligi sifatida faqat tor kontekstdagina, ya’ni tarjima matnida so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydigan holatlarda qo‘l keladi. Masalan, ingliz tilidagi *it goes without saying* kirish so‘zi o‘zbek tiliga *o‘z-o‘zidan anglashiladiki, o‘z-o‘zidan ma’lumki* tarzida o‘girilishi kerak. Aks holda, berilgan bo‘lakni so‘zma-so‘z tarjima qilish orqali o‘zbek tilida hech qanday ma’no bermaydigan so‘zlar jamlanmasi paydo bo‘ladi.

Uchinchi guruhga mansub tasnifga J.P. Vinay va J.Darbelnet tomonidan bildirilgan mulohazani olish mumkin. Ularning fikricha, so‘zni tarjima birligi qilib ajratish mumkin emas. Ular bunga sabab qilib, birinchidan, so‘z (leksema) aniq chegaraga ega emasligini aytadi. Ikkinchidan, ularning fikricha, so‘z og‘zaki nutqda almashinib qo‘llanilishi mumkin. Uchinchidan, so‘z belgining ikki yoqlama ma’no anglatish imkoniyatini yaqqol namoyon eta olmaydi, ya’ni aniqlovchi aniqlanmish anglatgan ma’no-mazmunni so‘nggi planga surib qo‘yadi, deb ta’kidlaydi. Ularning ta’kidlashicha, “asosiy tarjima birligi sifatida “mazmun birligi”, ya’ni so‘z birikmasini tanlab olish maqsadga muvofiqdir” [Vinay & Darbelnet, 1958; 65]. Bildirilgan fikr o‘zini to‘liq oqlamasligi, unda faqat alohida tarjima birligining o‘zi keltirilganligi bilan ajralib turadi. Avvalo, mazmun birligiga erishish uchun so‘z birikmasi tarkibiga kiruvchi leksema, leksema shakl va ular o‘rtasidagi sintaktik, morfologik hamda semantik munosabatlar, shu munosabatlarni boshqa tilda aks ettirish jarayoni, mexanizmi va shart-sharoitlarini inobatga olish zarur.

Tarjima birligiga berilgan tasnifning *to‘rtinchi guruhiga* N.G. Valiyevaning fikrini keltirish mumkin. Olimning qayd etishicha, “tarjima birligi tushunchasining o‘zi ham shartli qabul qilingan termin hisoblanadi, chunki u o‘zgarmas birlik bo‘la olmaydi va alohida olingan so‘zdan to o‘girilayotgan matn hajmigacha bo‘lgan o‘zgaruvchi birlik bo‘lib xizmat qiladi. Tarjima jarayonida ishtirok etayotgan har ikkala tilning shaklan bir-biriga mos kelmasligini inobatga olib, tarjima jarayonining tayanch birligi sifatida so‘z, so‘z birikmasi, gap va undan katta birliklarni olish mumkin” [Valiyeva, 2018; 77]. So‘z, so‘z birikmasi va gapni tarjima birligi sifatida qabul qilish mumkin, ammo bunday birliklarni ikki yoki undan ortiq ketma-ket,

o‘zaro chambarchas bog‘langan, umumiy mavzu orqali birlashtirilgan mustaqil gaplar shaklida berilgan maxsus sintaktik-stilistik birlik, deb tushunamiz. Bunday birliklar ham tarjima jarayonida alohida bo‘laklarga bo‘linib, eng kichik tarjima qilinishi mumkin bo‘lgan qismdan eng kattasigacha tanlab olinadi va tarjima matnida boshqa shunday bo‘laklarga ajratiladi.

Yana bir toifa mutaxassislar esa qanday tarjima birligini ajratib olinishi tarjimaning turlari hamda tarjima jarayonida ishtirok etayotgan tillarga qarab o‘zgarishini ta’kidlaydi. I.Revzin va V.Y. Rozensveygning fikricha, “...alohida morfema gap tarkibida modallikni ifodalay olgan va vositachi tilda (tarjimada qatnashayotgan tilda) alohida olingan eng kichik sintaktik birlikka, keyin esa tarjima matnida alohida bo‘lakka mos kelgan taqdirda, u ham tarjima birligi maqomini olishi mumkin” [Revzin, 1964; 117]. V.V. Alimovning ta’kidlashicha, tarjimaning turiga bog‘liq ravishda unda qo‘llaniladigan tarjima birliklari ham o‘zgarishi mumkin. Unga ko‘ra “...masalan, yozma tarjima jarayonida so‘z, so‘z birikmasi, sintagma va butun bir gap tarjima birligi bo‘lib ishlatilishi mumkin” [Alimov, 2005]. Malkerning ta’kidlashicha, tarjima birligi asliyat va tarjima birliklari tarkibidagi bir-birining mazmunini to‘ldirishga xizmat qiluvchi segmentlardir [Malker, 2006; 92-93]. Xorijiy tarjimashunoslardan S.Viktoriya [Viktoriya, 2013] va Y.Vang [Wang, 2023] tomonidan tarjima birligi xususida bildirilgan mulohazalar ham muhim ahamiyatga ega.

E.V. Breus tarjimaning kommunikativ nazariyasiga e’tibor qaratar ekan, “asosiy tarjima birligi sifatida gap-mulohazani oladi” [Breus, 2001; 24]. V.S. Vinogradov o‘girilayotgan matn mazmun komponentining birlamchi ahamiyatiga va yozma matn tarjimasining “iboraviy” xususiyatiga urg‘u beradi [Vinogradov, 2001; 33-34]. O‘ziga xos umumlashtiruvchi mulohaza sifatida Y.I. Retskerning fikrini keltirish mumkin. Uning fikricha, matn tarjimasida tarjima birligi bo‘lib so‘z, so‘z birikmasi, sintagma, gap, xatboshi yoki butun bir gap xizmat qiladi [Retsker, 2006; 29]. Rus tarjimashunos olimlaridan biri N.K. Garbovskiyning ta’riflashicha, “Tarjimon matnni ma’lum ketma-ketlikda idrok etadi va uni tarjima matnida qayta yaratadi. Boshqacha aytganda, tarjima *bosqichma-bosqich*, *qadamma-qadam* amalga oshiriladigan jarayon sanaladi. Butun tarjima jaryonida ishtirok etadigan alohida qismlarni esa *tarjima birligi* deb atash mumkin” [Garbovskiy, 2007; 248]. A.D. Shveytserning fikricha, “tarjima birligi tushunchasi termin nuqtayi nazaridan qarama-qarshilikka ega” [Shveytser, 1973; 71]. U mazkur qarama-qarshilikni, avvalambor, har qanday birlik o‘zgarmas kattalik bo‘lishi, shu sababli, tarjima birligi, unga berilgan ta’rifga ko‘ra, o‘zgaruvchan kattalik hisoblanishi bilan izohlaydi. A.D. Shveytser bu bilan “tarjima birligiga” olmon tadqiqotchisi O.Kade tomonidan bildirilgan quyidagi ta’rifni dalil qilib ko‘rsatadi, “tarjima birligi potensial ekvivalent munosabatlar tufayli tarjima matnidagi boshqa bo‘laklarga zid qo‘yiladigan va asliyat matnidan anglashilgan mazmunning o‘zgarmaslik xususiyatini saqlab qoladigan eng kichik qism (birlik) hisoblaydi [Kade, 1981]. Bundan tashqari, Sh.Isoqova kontekstda tarjima birligini aniqlash masalasi, tarjimashunoslikda ko‘p qo‘llaniladigan termin va tushunchalar izohi, til va tarjima birliklariga oid mamlakatimiz va xorijiy tarjimashunoslar tomonidan bildirilgan qimmatli fikr-mulohazalarni keltirgan. Jumladan, u “...tarjima birligining uzunligi

(unga kiritilgan til birliklari soni) emas, balki ushbu birlikning semantik tarkibini tushunish muhim”ligini ta’kidlaydi[Isoqova, 2020; 13].

Til birliklari	Tarjima birliklari
fonema	fonema
(til birliklari uchun ifoda jihati sifatida)	morfema
morfema	soʻz
leksema	–
leksema shakl	soʻz birikmasi
birikma shakl	gap
gap	–
	butun bir matn

Tadqiqotimizni leksik birliklar tarjimasiga doir turlicha yondashuvlarni bayon etish bilan davom ettiramiz. Shu sababdan tarjima jarayonida aynan leksik birliklar bilan yuzaga keladigan qator tarjimaviy qiyinchiliklarni aks ettirish va ularni barataraf qilish yuzasidan soha mutaxassislari tomonidan ilgari surilgan mulohaza va yondashuvlarni yoritib berishga harakat qilamiz.

Tarjimada leksik birliklarning semantik nomutanosibliklari, leksik transformatsiyalar, tarjimada kontekstning ahamiyati hamda tarjimashunoslikning leksik birliklar bilan bogʻliq boshqa jihatlari I.Gʻafurov, O.Moʻminov, N.Qambarov [Gʻafurov va boshq., 2012], Gʻ.Salomov [Salomov, 1983], Q.M. Musayev [Musayev, 2005], R.Fayzullayev [Fayzullayev, 1978], M.Xolbekov [Xolbekov, 2009] va J.Sharipov [Sharipov, 1972] singari taniqli tarjimon va tarjimashunos olimlar tomonidan yaratilgan oʻquv adabiyotlarda hamda L.S. Barxudarov, V.N. Komissarov [Komissarov, 2011], V.Lisitsyna, E.K. Arutyunov [Lisitsyna & Arutyunov, 2014], L.Latyshev [Latyshev, 1981], R.K. Minyar-Beloruhev [Minyar Beloruhev, 1999], Y.I. Retsker [Retsker, 2009; 45], T.R. Levitskaya, A.M. Fiterman [Levitskaya & Fiterman, 1963], A.D. Shveytser [Shveytser, 1988], I.A. Melchuk [Melchuk, 1999], G.N. Sklyariyevskaya [Sklyariyevskaya, 1993], N.A. Chitalina [Chitalina, 1975], R.R. Tazedtinova [Tazedtinova, 2012], V.V. Sdobnikov [Sdobnikov, 2007; 448], G.Berend [Berend, 2019], G.Hendrik, W.Florian va P.Martin [Hendrik va boshq., 2019], V.P. Dorojkina [Dorojkina, 2004; 349] va V.V. Alimov [Alimov, 2005; 232] kabi xorijiy tarjimashunos olimlarning nazariy tarjimashunoslikka oid olib borgan ilmiy tadqiqotlarida oʻz aksini topgan.

Tarjima jarayonida koʻp uchraydigan qiyinchiliklardan biri asliyat matnidagi muayyan leksik birlikka tarjima matnida har doim ham boshqa birlikning mos kelmasligidir. Leksikologiya nuqtayi nazaridan *leksik birlik* deganda soʻzni tushunamiz. Masalaga tarjima nuqtayi nazaridan qarasak, asliyat matnidagi leksik birlik tarjima matnida ham soʻzlarga, baʼzan soʻz birikmalariga yoki undan ham kattaroq lisoniy birliklarga toʻgʻri kelishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *room* soʻzini oʻzbek tiliga *xona* tarzida oʻgirish mumkin. Bunda asliyat matnidagi bitta tushunchaga tarjima matnida ham bitta tushunchaning toʻgʻri kelgan holatiga guvoh boʻlamiz. Ingliz tilidagi *payroll* leksemasi oʻzbek tiliga *toʻlov vedomosti*

shaklida tarjima qilinadi. Yana bir misolni – ingliz tilining amerika variantida ko‘p qo‘llaniladigan *hitchhiking* leksemasini olaylik. Uni o‘zbek tiliga bitta so‘z bilan tarjima qilish imkonsiz. Mazkur leksemani o‘zbek tilida *manzilga yo‘li bir bo‘lgan, o‘sha yo‘nalishga boradigan mashinada bepul yetib olmoq* ma’nosini ifodalaydi. Demak, tarjima jarayonida leksik birliklar o‘zgarmas kattalik bo‘la olmagan bo‘is tarjimon ko‘p hollarda tarjima birligi bilan ish ko‘rishga majbur bo‘ladi.

L.Barxudarovning fikricha, tilda mavjud bo‘lgan barcha birliklar, ya’ni fonema, morfema, so‘z, so‘z birikmasi hamda gap tarjima birligi bo‘lishi mumkin [Barxudarov, 1975]. Fikrimizcha, ushbu aytilgan fikr muayyan darajada o‘rinlidir, sababi – ayrim hollarda til birliklari bilan tarjima birliklari bir-biriga mos kelgan holatlar uchraydi, ammo bu narsa doimiy xarakterga ega emas. Shuni hisobga olib, biz tarjima birligini aniqlashdan avval tarjimada leksik birlik nimaligini bilib olishimiz lozim. Ma’lumki, tarjimada tushunchalarning o‘zaro mos kelish holatlari nisbatan kam uchraydi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, tarjimada so‘zga so‘z, so‘zga so‘z birikmasi, so‘zga gap to‘g‘ri kelishi mumkin. Shuning asosida tarjimadagi leksik birlik deganda biz so‘z va so‘z birikmasini, hatto bitta so‘zga to‘g‘ri keladigan frazeologik birlikni ham tushunishimiz mumkin. Bunda ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lgan frazeologik birlik bitta so‘z ma’nosiga to‘g‘ri kelgan bo‘lishi lozim [G‘afurov va boshq., 2012; 106].

XULOSA

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tarjima birligiga berilgan ta’rifga oid mushohada va fikr-mulohazalar tahlili hamda mavzuga oid adabiyotlar tadqiqi shuni ko‘rsatadiki, fonema, morfema, so‘z, so‘z birikmasi, gap va ayrim hollarda butun bir matn ham tarjima birligi vazifasini o‘taydi. Ayniqsa, rus tarjimashunos olimlari L.S. Barxudarov va V.N. Komissarov tomonidan ilgari surilgan ta’rif o‘zining to‘laqonliligi, mufassalligi, mazkur leksik birlikka nisbatan bayon etilgan ta’rif-u tavsiflar ichida tarjima faoliyatining ichki mexanizmi hisoblangan tarjima birligi termini to‘liq izohlaganligi bilan alohida ahamiyatga molikdir. Tarjima hamda til birliklarini bir-biriga taqqoslab, guruhlash orqali ular o‘rsatidagi farq va o‘xshashliklarni kuzatish mumkin. Bundan tashqari, tarjimada leksik birliklar bilan sodir bo‘ladigan tarjimaviy murakkabliklarni hal etishda turli vosita va usullardan foydalanish mumkin, ammo bu tarjima jarayonida aynan asliyatdan o‘girilayotgan tildagi matnning leksik-semantik butunligiga muvofiq to‘g‘ri so‘zni tanlash hamda to‘laqonli va adekvat tarjima yaratish masalasi to‘laligicha o‘z yechimini topdi, degani emas. Oldinda bu borada soha mutaxassislari va yosh tarjimashunoslar va tadqiqotchilar oldida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar kutmoqda. Zotan, har bir tilning o‘ziga xos kuchli va zaif tomonlari bor. Dunyoda boshqa tillarda mavjud barcha lug‘aviy-uslubiy xususiyatlar, semantik-grammatik resurslarni batamom qoplay oladigan mutlaq boy til yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Har bir til o‘zicha boy va o‘zicha go‘zal.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alekseyeva, I.S. (2004). *Vvedeniye v perevodovedeniye*. Moskva: Akademiya.
2. Alimov, V.V. (2005). *Interferentsiya v perevode*. Moskva: KomKniga.
3. Alimov, V.V. (2005). *Teoriya perevoda: Perevod v sfere professionalnoy kommunikatsii*. Moskva: Editorial URSS.

4. Barxudarov, L.S. (1975). *Yazyk i perevod*. Moskva: Mejdunarodniye otnosheniya.
5. Berend, G. (2019). Wind turbine wake vortex influence on safety of small rotorcraft. *The Aeronautical Journal*, 123(1267), 1374–1395.
6. Bloomfield, L. (1968). *Yazyk*. Moskva: Progress.
7. Breus, E.V. (2001). *Teoreya i praktika perevoda s angliyskogo na russkiy*. Moskva: URAO.
8. Dorojkina, V. (2004). *Angliyskiy yazik dlya studentov-metamatikov i ekonomistsov*. Moskva: Astrel.
9. Fayzullayeva, R. (1978). *Natsionalniy kolorit i xudojestvenniy perevod*. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
10. Garbovskiy, N.K. (2006). *Teoreya perevoda*. Moskva: Izdatelstvo Moskovskogo universiteta.
11. Gleason, H.A. (1955). *An introduction to descriptive linguistics*. New York: Holt, Rinehart and Winston.
12. Gesell, H., Wolters, F., & Plohr, M. (2019). System analysis of turbo-electric and hybrid-electric propulsion systems on a regional aircraft. *The Aeronautical Journal*, 123(1268), 1602–1617. <https://doi.org/10.1017/aer.2019.61>.
13. Hojiyev, A. (2010). *O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari*. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
14. Isoqova, Sh. (2020). *Tarjima nazariyasi*. Qo‘qon: Qo‘qon davlat pedagogika instituti.
15. Kade, O. (1981). Kommunikationswissenschaftliche Probleme der Translation. In W.Wilss (Hg.), *Übersetzungswissenschaft* (S. 199–219). Darmstadt: Wissenschaftliche Buchgesellschaft.
16. Kaduxov, V.I. (1979). *Vvedenie v yazykoznanie*. Moskva: Prosveshcheniye.
17. Komissarov, V.N. (1973). *Slovo o perevode*. Moskva: Mejdunarodniye otnosheniya.
18. Komissarov, V.N. (2011). *Sovremennoy perevodovedeniye*. Moskva: ETS.
19. Krupnov, V.N. (1976). *Tvorcheskoy laboratorii perevodchika*. Moskva: Mejdunarodniye otnosheniya.
20. Kubryakova, E.S. (1963). Ob osnovnyx yedinitsex lingvisticheskogo analiza i predmete morfologii. V V.M. Zhirmunskii, O.P. Sunik (Red.), *Morfologicheskaya struktura slova v yazykax razlichnyx tipov*. Leningrad: Izdatelstvo Akademii nauk SSSR.
21. Latyshev, L. (1981). *Kurs perevoda*. Moskva: Mejdunarodniye otnosheniya.
22. Levitskaya, T., & Fiterman, A. (1963). *Teoriya i praktika perevoda s angliyskogo na russkiy*. Moskva: Izdatelstvo literatury na inostrannykh yazykakh.
23. Lisitsina, V., & Arutyunov, E. (2014). Vidy leksicheskix transformatsiy pri pismennim perevode. *Mejdunarodniy jurnal eksperimentalnogo obrazovaniya*, 3(10), 167–170.
24. Malmker, K. (Ed.). (2006). *Encyclopedia of language & linguistics* (2nd ed.). London: Routledge.
25. Melchuk, I.A. (1999). *Opyt teorii lingvisticheskikh modeley “Smysl <=> Tekst”*. Moskva: Shkola “Yazyki russkoy kul’tury”.
26. Minyar-Beloruchev, R.K. (1999). *Kak stat perevodchikom?* Moskva: Gotika.
27. Musayev, Q. (2005). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: “Fan” nashriyoti.
28. Niyazov, A.A. (2023). Hududda transport tizimlari joylashuvini baholashda tasniflash imkoniyatlaridan foydalanish. *Ekonomika i sotsium*, 9(112), 186–189.
29. Nurmonov, A., Sobirov, A., & Yusupova, Sh. (2002). *Modern Uzbek literary language*. Tashkent: Publishing House of “Sharq”.
30. Nurmonov, A. (2002). *O‘zbek tilshunosligi tarixi*. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.
31. Rahmatullayev, Sh. (2002). *Til qurilishining asosiy birliklari*. Toshkent: “Universitet” nashriyoti.
32. Rahmatullayev, Sh. (2006). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Toshkent: “Universitet” nashriyoti.
33. Reformatsky, A.A. (1996). *Vvedenie v yazykovedenie*. Moskva: Aspekt Press.
34. Retsker, Y.I. (2009). *Teoriya perevoda i perevodskaya praktika*. Moskva: Valent.
35. Retsker, Y.I. (2006). *Teoreya perevoda i perevodskaya praktika*. Moskva: Valent.

36. Revzin, I.I. (1962). Osnovniye yedinitsi sintaksicheskogo analiza i ustanovlenie otnosheniy mejd u nimi. V T.M. Nikolayeva, D.M. Segal, V.N. Toporov & T.V. Tsiv'yan (Red.), *Strukturno-tipologicheskkiye issledovaniya* (ss. 19–24). Moskva: Izdatel'stvo Akademii Nauk SSSR.
37. Revzin, I.I., & Rozentsveyv, V.Y. (1964). *Osnovy obshego i mashinnogo perevoda*. Moskva: Vysshaya shkola.
38. Salomov, G'. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
39. Sdobnikov, V. (2007). *Teoriya perevoda*. Moskva: AST, Vostok-Zapad.
40. Smirnitsky, A.I. (1956). *Leksikologiya angliyskogo yazyka*. Moskva: Izdatel'stvo literatury na inostrannykh yazykakh.
41. Stepanov, Y.S. (1966). *Osnovy yazykoznaniya*. Moskva: Prosveshcheniye.
42. Tazedtinova, R. (2012). *Kurs perevoda*. Moskva: Izdatel'stvo BGPU.
43. Valiyeva, N.G. (2018). *Vvedeniye v teoriyu i praktiku perevoda*. Moskva: RUDN.
44. Wang, Y. (2023). The impact of linguistic metaphor on translation unit in target text processing: An eye tracking and keylogging English-Chinese translation study. *AmperSand*, 11, 100129. <https://doi.org/10.1016/j.amper.2023.100129>.
45. Viktoriya, S. (2013). Challenges of translating phraseological units. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 70, 1487–1492. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.01.216>.
46. Vinay, J.P., & Darbelnet, J. (1958). *Stylistique comparée du français et de l'anglais*. Paris: Didier.
47. Vinogradov, V.S. (2001). *Vvedeniye v perevodovedeniye*. Moskva: URAO.
48. Xayrullayev, X. (2018). Til va nutq birliklarining iyerarxik munosabatlari. *Filol. fan. dok. diss. avtoref*. Toshkent.
49. Xolbekov, M. (2009). Tarjima nazariyasining lingvistik prinsiplari. *Filologiya masalalari*, 1(4), 49–53.
50. G'afurov, I., Mo'minov, O., & Qambarov, N. (2012). *Tarjima nazariyasi*. Toshkent: "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti.
51. Sharipov, J. (1972). *Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
52. Sherba, L.V. (1953). *Grammatika russkogo yazika*. Moskva: Izdatel'stvo "Nashe Zavtra".
53. Sheytser, A.D. (1973). *Perevod i lingvistika: O gazetno-informatsionnom i voyenno-publitsisticheskom perevode*. Moskva: Voenizdat.
54. Shveytser, A.D. (1988). *Teoriya perevoda*. Moskva: Izdatel'stvo "Nauka".
55. Sklyariyevskaya, G.N. (1993). *Metafora v sisteme yazyka*. Moskva: Izdatel'stvo "Nauka".
56. Chitalina, N. (1975). *Uchytes perevodit*. Moskva: Mejdunarodniye otnosheniya.

REFERENCES

1. Alekseeva, I.S. (2004). *Introduction to translation studies*. Moscow: Academy.
2. Alimov, V.V. (2005). *Interference in translation*. Moscow: ComBook.
3. Alimov, V.V. (2005). *Translation theory: Translation in the field of professional communication*. Moscow: Editorial URSS.
4. Barkhudarov, L.S. (1975). *Language and translation*. Moscow: International relations.
5. Berend, G. (2019). Wind turbine wake vortex influence on safety of small rotorcraft. *The Aeronautical Journal*, 123(1267), 1374–1395.
6. Bloomfield, L. (1968). *Language*. Moscow: Progress.
7. Breus, E.V. (2001). *Theory and practice of translation from English into Russian*. Moscow: URAL.
8. Chitalina, N. (1975). *Learn to translate*. Moscow: International relations.
9. Dorozhkina, V. (2004). *English for students of mathematics and economics*. Moscow: Astrel.
10. Fayzullayeva, R. (1978). *National color and divine translation*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
11. Gafurov, I., Mominov, O., & Kambarov, N. (2012). *Theory of translation*. Tashkent:

- Publishing House of 'The capital of thought'.
12. Garbovsky, N.K. (2006). *Translation theory*. Moscow: Moscow University Publishing House.
 13. Gesell, H., Wolters, F., & Plohr, M. (2019). System analysis of turbo-electric and hybrid-electric propulsion systems on a regional aircraft. *The Aeronautical Journal*, 123(1268), 1602–1617. <https://doi.org/10.1017/aer.2019.61>.
 14. Gleason, H.A. (1955). *An introduction to descriptive linguistics*. New York: Holt, Rinehart and Winston.
 15. Hajiyev, A. (2010). *Theoretical issues of morphology, morphemics and word formation of the Uzbek language*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
 16. Isakova, Sh. (2020). *Theory of translation*. Kokan: Kokan State Pedagogical Institute.
 17. Kade, O. (1981). Communication science problems of translation. In W. Wilss (Ed.), *Translation Studies* (pp. 199–219). Darmstadt: Scientific Book Society.
 18. Kadukhov, V.I. (1979). *Introduction to linguistics*. Moscow: Enlightenment.
 19. Khayrullaev, H. (2018). Hierarchical relations of language and speech units. *Abs. DSc thesis. philol. scien. doc.* Tashkent.
 20. Kholbekov, M. (2009). *Linguistic principles of translation theory*. *Philology Matters*, 1(4), 49–53.
 21. Komissarov, V.N. (1973). *A word about translation*. Moscow: International relations.
 22. Komissarov, V.N. (2011). *Modern translation studies*. Moscow: ETS.
 23. Krupnov, V.N. (1976). *Creative translator laboratory*. Moscow: International relations.
 24. Kubryakova, E.S. (1963). On the basics of the unit of linguistic analysis and the subject of morphology. In V.M. Zhirmunsky, O. P. Syunik (Ed.), *Morphological structure of words in languages of various types*. Leningrad: Publishing House of the USSR Academy of Sciences.
 25. Latyshev, L. (1981). *Translation course*. Moscow: International relations.
 26. Levitskaya, T., & Fiterman, A. (1963). *Theory and practice of translation from English into Russian*. Moscow: Publishing house of literature in foreign languages.
 27. Lisitsina V., Arutyunov E. (2014). Types of lexical transformations in written translations. *International Journal of Experiential Education*, 3(10), 167–170.
 28. Malmker, K. (Ed.). (2006). *Encyclopedia of language & linguistics* (2nd ed.). London: Routledge.
 29. Melchuk, I.A. (1999). *Experience in the theory of linguistic models "Meaning $\Leftrightarrow$ Text"*. Moscow: School of 'Languages of Russian Culture'.
 30. Minyar-Beloruchev, R.K. (1999). *How to become a translator?* Moscow: Gothic.
 31. Musayev, K. (2005). *Fundamentals of translation theory*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
 32. Niyazov, A.A. (2023). Use of classification capabilities in assessing the location of transport systems in the area. *Economics and Society*, 9(112), 186–189.
 33. Nurmonov, A. (2002). *History of Uzbek linguistics*. Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
 34. Nurmonov, A., Sobirov, A., & Yusupova, Sh. (2002). *Modern Uzbek literary language*. Tashkent: Publishing House of 'East'.
 35. Rahmatullayev, Sh. (2002). *Basic units of language construction*. Tashkent: Publishing House of 'University'.
 36. Rahmatullayev, Sh. (2006). *Modern Uzbek literary language*. Tashkent: Publishing House of 'University'.
 37. Reformatsky, A.A. (1996). *Introduction to linguistics*. Moscow: Aspect Press.
 38. Retsker, Y.I. (2006). *Translation theory and translation practice*. Moscow: Valent.
 39. Retsker, Y.I. (2009). *Translation theory and translation practice*. Moscow: Valent.
 40. Revzin, I.I. (1962). Basic units of parsing and establishing relationships between them. In T.M. Nikolaeva, D.M. Seagal, V.N. Toporov, T. V. Tsivyan (Eds.), *Structural-typological*

- studies* (pp. 19–24). Moscow: Publishing House of the USSR Academy of Sciences.
41. Revzin, I.I., & Rosenzweig, V.Y. (1964). *Fundamentals of general and machine translation*. Moscow: Higher School.
 42. Salomov, G. (1983). *Fundamentals of translation theory*. Tashkent: Publishing House of 'Teacher'.
 43. Sdobnikov, V. (2007). *Translation theory*. Moscow: AST, East-West.
 44. Sharipov, J. (1972). *Literary translations and skilled translators*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
 45. Shcherba, L.V. (1953). *Grammar of Russian language*. Moscow: Publishing House of 'Our Tomorrow'.
 46. Sheytser, A.D. (1973). *Translation and linguistics: On newspaper information and military journalistic translation*. Moscow: Military Publishing House.
 47. Sheytser, A.D. (1988). *Translation theory*. Moscow: Publishing House of 'Science'.
 48. Sklyarevskaya, G.N. (1993). *Metaphor in the language system*. Moscow: Publishing House of 'Science'.
 49. Smirnitsky, A.I. (1956). *Lexicology of the English language*. Moscow: Publishing House of Literature in Foreign Languages.
 50. Stepanov, Y.S. (1966). *Fundamentals of linguistics*. Moscow: Enlightenment.
 51. Tazedtinova, R. (2012). *Translation course*. Moscow: BSPU Publishing House.
 52. Valieva, N.G. (2018). *Introduction to the theory and practice of translation*. Moscow: PFUR.
 53. Viktoriya, S. (2013). Challenges of translating phraseological units. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 70, 1487–1492. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.01.216>.
 54. Vinay, J.P., & Darbelnet, J. (1958). *Comparative stylistics of French and English*. Paris: Didier.
 55. Vinogradov, V.S. (2001). *Introduction to translation studies*. Moscow: URAE.
 56. Wang, Y. (2023). The impact of linguistic metaphor on translation unit in target text processing: An eye tracking and keylogging English-Chinese translation study. *Ampersand*, 11, 100129. <https://doi.org/10.1016/j.amper.2023.100129>.